

**YOSHLAR MA'NAVIYATINI SHAKLLANTIRISHDA MILLIY  
CHOLG'U IJROCHILIGINING PEDAGOGIK-  
PSIXOLOGIK TAHLILI.**

**Dadamirzayeva Gulshanoy To'lanjon qizi**

Farg'ona Davlat Universiteti magistranti [gulshanoyergasheva@gmail.com](mailto:gulshanoyergasheva@gmail.com)

**ARTICLE INFO.**

Kalit so'zlar: ma'naviyat, yosh avlod, pedagogic talablar, tahlil, psixologik ta'sir, faollik, fidoyilik, nazariy bilimlar, amaliy bilimlar, milliy cholg'ular ijrosi.

**Annotatsiya**

Ushbu maqolada musiqa mashg'uloti o'qituvchisiga qo'yilgan pedagogik talablar tahlil qilingan. Shuningdek, yangi O'zbekistonni yanada gullab-yashnashi uchun yuksak ma'naviyatli yetuk kadrlar yetishtirishda musiqaning ahamiyati beqiyos ekanligi yoritiladi. Shu bilan birga musiqa bilan shug'ullanish yosh avlodni ko'p jihatdan tarbiyalaydi, serqirra ijodkor bo'lib shakllanishi uchun yordam beradi. Aqlan yetuk jismonan va ruhan sog'lom bo'lib ulg'ayishida katta ahamiyat kasb etadi. Maqolada musiqa - idrok etish, yodda saqlash, his qilish, his-tuyg'ularni boshqarish, o'rganish va o'rgatish kabi juda ko'p aqliy faoliyatlarni o'z ichiga qamrab olganligi bilan ajralib turishi yoritib beriladi. Aynan ana shu aqliy faoliyatlar o'quvchi yoshlarni yuksak ma'naviyatli yoshlar bo'lib yetishishi uchun asosiy tamal bo'lib xizmat qiladi.

<http://www.gospodarkainnowacje.pl/> © 2024 LWAB.

Yosh avlodni barkamollik sari yetaklashda tarbiyaning ko'plab omillari qatorida musiqa alohida o'rin tutadi. Musiqa o'zining betakror tabiati bilan yoshlarning ma'naviy dunyosiga katta ta'sir etish kuchiga ega. Donishmand xalqimiz azaldan musiqa va qo'shiqni o'z ijtimoiy va madaniy hayotlarining muhim bo'lagi deb bilgan. Oilada farzandni qo'shiq aytishga, soz chalishga o'rgatish ota-onalarning orzusi sanalgan, shu niyat bilan xonadonda biron cholg'u soz saqlanishi odat qilingan. Kuy va ohangni bola qalbiga tez yo'l topa olishi, ruhiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi, xulq-odobi va yaxshi fazilatlarini shakllanib borishida katta ta'sir kuchiga ega bo'lishi chuqur anglab yetilgan.

“O'zbekiston Respublikasi Prezidentining madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi 02.02.2022 yildagi PQ-112-son qarorida belgilangan 2022/2023 o'quv yilidan boshlab ta'lim muassasalarida o'quvchi va talabalarning musiqiy bilim va ko'nikmalarini oshirish, ularning qalbida milliy madaniyatga bo'lgan muhabbatni shakllantirish, yosh iste'dodlarni aniqlash va qo'llab-quvvatlashga qaratilgan quyidagi chora-tadbirlar amalga oshirilishi” va shunga o'xshash musiqa san'atini rivojlantirish maqsadida bir qator qarorlar qabul qilingani buning

yaqqol tasdig'idir.<sup>1</sup> Aynan ana shu qarorlarda belgilangan vazifalar ijrosini ta'minlashda mazkur maqolaning mavzusi dolzarb ekanligidan dalolat beradi.

#### Adabiyotlar tahlili va tadqiqot uslublari

Bu maqolani yoritishda bir nechta adabiyotlar tahlil qilindi. Natijada bir qator musiqashunos olimlarning musiqiy faoliyatlarini, ularning musiqa haqidagi fikrlari o'rganib chiqildi. Jumladan, G.K.Nemirovskiy "Nafosat sohiblari" nomli asarida san'atning, nafosatning jozibasi haqida uning yer yuzidagi o'rni borasida dramaturg Evprid, buyuk donishmand Arastu, mashxur rassom Leonardo da Vinchi, she'riyat mulkining sultoni, davlat arbobi Alisher Navoiy, ajoyib so'z ustasi va faylasuf Gersen va mashxur tadqiqotchi va ajoyib skripkachi Albert Eynshteynlarning musiqaqaga nechog'lik katta e'tibor berganliklari haqida keltirib o'tilgan.

Shuningdek, G.Sharipova, G.Najmekdinov "Musiqa o'qitish praktikumi" darsligida musiqa mashg'uloti o'qituvchisiga qo'yilgan talablar ularning bir soatlik dars mashg'ulotlarini to'g'ri shakllantirish borasida atroflicha fikrlar berilgan va tahlil qilingan.

N.Sharipovning "Rubob prima" darsligida milliy cholg'u asbobida to'g'ri ijro potanovkasi haqida ma'lumot berilgan. O'quvchining pastonovkasi nechog'lik muhim ekanligini tahlil qilib o'rganildi.

Ijodkor G.Muhammedovanning "Dutor darsligi" asarida o'quvchi musiqa asarini o'rganishdagi bosqichlar haqida ma'lumotlar keltirilgan. O'quvchi yangi musiqa asarini to'liq o'rganib olguniga qadar qanday bosqichlarni bosib o'tishi, qanday metodlardan foydalanishi, konsertmeyster bilan to'g'ri va unumli ishlash usullari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimovning musiqaning inson ruhiyatida ta'siri va milliy cholg'u asboblarining tarixi haqidagi fikrlari bilan tanishildi va muhokama qilindi. Va quyidagi natijaga erishildi.

San'atning, nafosatning jozibasini, boyligini yer yuzidagi hech qanday o'lchov bilan o'lchab bo'lmaydi. San'atga yaqin bo'lgan inson boy va mazmundor hayot kechiradi. San'at hayotimizni yuksak cho'qqilarga ko'taradi, uni mazmunan boyitadi, kishini fazilatli, xushahloqli, pok, sofdil, bo'lishiga undaydi. Bundan qariyb ikki ming to'rt yuz yil avval yashagan qadimgi grek dramaturgi Evripid shunday degan edi:

Yo'q tashlamayman, bu ilhom manbai, bu mehrob...

San'atsiz haqiqiy hayot yo'q. Arastu buyuk donishmand, nafosatni sevgan kishi bo'lgan, Leonardo da Vinchi ham olim, ham go'zallik oshig'I bo'lgan. Alisher Navoiy buyuk shoir, davlat arbobi, ko'p musiqalar bastalagan. Mixail Lomonosov ilmiy asarlar va she'rlar yozgan. Gersen ajoyib so'z ustasi va faylasuf bo'lgan. Chexov esa ulug' yozuvchi va mohir shifokor. Albert Eynshteyn faqat mashxur tadqiqotchigina emas, ayni vaqtda ajoyib musiqachi ham edi. Skripka uning yaqin suhbatdoshi, do'sti bo'lib xizmat qilgan, undan hordiq olgan. "Shaxsan men,- deb yozgan edi u,- oliy baxt hissini san'at asarlaridan olaman. Ular menga boshqa hech bir soha bera olmaydigan bitmas-tuganmas ruhiy zavq bag'ishlaydi". San'atdan zavq ola bilish ajib bir zakovat bo'lsa, mustaqil ijod qilish oliy ezgulikdir<sup>2</sup>.

Xalqimiz kelajagi mustaqil O'zbekistonning istiqboli ko'p jihatdan o'qituvchiga, uning dunyoqarashiga, tayyorgarligiga, fidoyiligiga, yosh avlodni o'qitish va tarbiyalash ishiga bo'lgan munosabatiga bog'liq. Bo'lajak musiqa o'qituvchilarining kasbiy tayyorgarligini kuchaytirish, ixtisoslariga doir fanlarni o'qitish va pedagogik mahoratni egallash, nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llashga o'rgatish bugungi kun talabidir. Uzluksiz pedagogik ta'lim tizimini amalga oshirilishi

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112 sonli qarori

<sup>2</sup> Nemirovskiy G.K. Nafosat sohiblari. O'qituvchi. Toshkent-1970. B.3

munosabati bilan o'qituvchilarni malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash ishlari diqqat markazidadir.

O'qituvchilik sharaflilik, lekin juda murakkab kasbdir, o'qituvchi musiqa nazariyasini egallash bilan birga, pedagogik amaliyotni ham o'tgan bo'lishi kerak. Chunki, maktab hayotidagi pedagogik jarayon juda xilma-xildir. Bu esa musiqa o'qituvchisidan keng bilimdonlikni, puxta amaliy tayyorgarlik, yuksak pedagogik mahorat va ijodkorlikni talab etadi.

Mustaqil O'zbekistonimizda musiqa o'qituvchilarining zimmasiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Ijodkor, ishbilarmon bo'lish;
- Milliy qadriyatlar va umuinsoniy qadriyatlarni, dunyoviy bilimlarni mukammal egallash;
- Musiqiy ixtisoslikka doir bilimlarni, psixologiya, pedagogik bilim va mahoratni hamda nazariy bilimlarni puxta bilish.
- Vatanparvarlik burchini to'g'ri anglash;
- O'qituvchilik kasbini va bolalarni yaxshi ko'rish hamda inson sifatida kamol topishiga ko'maklashish;

- Erkin va ijodiy fikrlay olishi, talabchan, adolatli, odobli bo'lmog'i kabilar siular jumlasidandir.

Dars shaklida olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari, o'qituvchining kundalik o'quv material, tizimini bayon qilib berish, xilma-xil metodlardan foydalanish, o'qituvchilarni bilim, ko'nikma va malakalarini izchillik bilan hisobga olib borish hamda o'quvchilarni mustaqil ishlashga o'rgatishni o'z ichiga oladi. O'qituvchilik kasbini egallagan har bir inson avvalo, o'qituvchi shaxsiga xos xususiyatlarni o'zida mujassan etmog'i lozim. Maxsus (musiqiy) kasbiy tayyorgarlikning to'la hajmi va mazmunini o'zlashtirgan bo'lishi, tanlangan maxsus (musiqiya) ixtisosi yuzasidan kerakli darajada pedagogik mahoratga ega bo'lishi kerak. Bilimlarni bolalarga yetkaza olish qobiliyatiga, ziyraklik, kuzatuvchanlik, malakalariga ega bo'lmog'i lozim. Zero, o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samaradorligini oshirish uchun o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgata olishi, o'z ustida ishlashga jamiyatda bo'layotgan o'zgarishlarga munosabat bildira olishi bugungu kunning dolzarb masalasidir.

O'qituvchi musiqa darslariga quyidagi talablar asosida tayyorlanishi kerak:

- Har bir dars ma'lum bir maqsadni amalga oshirishga qaratilgan va puxta rejalashtirilgan bo'lishi;
- Har bir dars o'quvchilarni hayot tajribasiga va amaliyot bilan bog'langan bo'lishi;
- Har bir dars xilma-xil metod, usullar, innovatsion texnologiyalardan foydalanilgan holda olib borilishi;
- Darsga ajratilgan har bir daqiqadan unumli foydalanishi kabilarni oz ichiga oladi.

Darsda o'quv materiallarining mazmuniga oid ko'rgazmali qurollar, tarqatma materiallar, texnik vositalar va kompyuterlardan foydalanish kerak. Har bir darsning muvaffaqiyati ko'p jihatdan o'qituvchining mashg'ulotni to'g'ri tashkil etishiga bog'liq. Darslarga tayyorlanish jarayonida foydalanadigan musiqiy asarlar, bolalar didiga, yoshiga, qiziqishi, ovoz diapazoniga hamda fikrlash qobiliyatlariga mos kelishi zarur. Bu o'quvchilar orasida bir-biriga xurmat, do'stlik alomatlarini tarbiyalash bilan birga musiqadan zavq, madaniy ozuqa olish kabi tuyg'ularni tarbiyalaydi<sup>3</sup>. Bundan tashqari musiqa o'qituvchisi, musiqa darsida kuyni milliy cholg'u asbobida chiroyli va mahorat bilan ijro eta olishi alohida ahamiyat kasb etadi. O'qituvchi mashg'ulot davomida har bir o'quvchining individual xususiyatlari va mashg'ulotni o'zlashtirish darajasini hisobga olishi lozim. O'qituvchi o'quvchi diqqatini o'ziga jalb qilish uchun o'zining jonli ijrosi, mimikasi, lozim bo'lgan taqdirida ko'rgazmali qurollardan, texnika vositalaridan foydalanishi lozim. Bu bilan birgalikda o'qituvchi mashg'ulot mavzusini ishonchli

<sup>3</sup> Sharipova.G. Najmekdinov G`. Musiqa o'qitish praktikumi. Toshkent. Turon-Iqbol. 2014.

dalillar bilan tushuntirishi va isbotlab berishi lozimdir.

Hozirgi kunda mavjud musiqiy ta'lim tizimi: bolalar musiqa va san'at maktablari, Respublika ixtisoslashtirilgan musiqa maktablari hamda oliy ta'lim muassasalari ijrochi-sozandalari, mukammal bilim olishlari uchun asosiy zamin hisoblanadi.

Cholg'u ijrochiligi san'ati muntazam ravishda rivojlanib, sayqallanib boradigan ijodiy jarayon bo'lib, ushbu tizimning barcha bosqichlarida yosh sozanda nazariy va amaliy bilimlarni yetarli darajada o'zida shakllantira olishi hamda bilim ko'nikmalarni to'liq mustahkamlash imkoniyatlariga ega bo'ladi. Shuni aytish lozimki o'quvchi oliy ta'limgacha bo'lgan muassasalarda egallagan ko'nikmalari uning keljakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi kerak. Bunda musiqadagi elementar tushunchalarga ega bo'lish lozim.

Dastlabki darslarda o'quvchiga cholg'u haqida umumiy axborot berilgandan so'ng, cholg'uda ijro holatini (postanovka), sozandaning fiziologiyasidan kelib chiqqan holda to'g'ri shakllantirish yo'lga qo'yiladi. O'quvchining gavdasi, qo'llari, barmoqlarining uzun-kaltaligini inobatga olish o'qituvchining zimmasida bo'lib, unga o'z vaqtida e'tabor bermaslik kelajakda jiddiy nuqsonlarga olib kelishiga sabab bo'lishi mumkin.

Ijro etish paytida sozandaning chap qo'l barmoqlari erkin harakat qilishi uchun avvalo chap qo'l holatining to'g'ri bo'lishini ta'minlash kerak<sup>4</sup>.

Shu o'rinda musiqa asarlari ustida ishlashga doir uslubiy ko'rsatmalar bilan tanishib chiqsak:

Musiqa ijrosini tarbiyalashda dastlab musiqa, so'ngra texnik imkoniyat, undan keyin dinamika va boshqa unsurlarni siralash hato bo'ladi. Chunki asarning barcha jihatlari bir vaqtda, o'zaro bog'liq holda olib boriladi. O'quvchining musiqa sohasiga qo'ygan birinchi qadamidan boshlab, butun ijodiy faoliyati davomida bu jarayon davom etadi.

Kichik shakldagi badiiy asarlarini o'quvchi qancha ko'p ijro etsa, unda kompozitorlar va bastakorlar uslubi haqida tushuncha paydo bo'ladi. Musiqa asarlarining mazmunini diqqat bilan aniq va chuqur tahlil qilsak, bu sohaning o'z qonuniyatlari borligini ko'ramiz.

Musiqa asarlari ustida ishlash jarayonini 3 ta asosiy bosqichga bo'lish mumkin:

1-bosqich. Asarning mazmuni (asar mazmunini tushunishdagi ba'zi aniqliklar)

a) Asar qaysi musiqa asariga taalluqli (pyesa, poema, vals)

b) Asarning shakli (bir qismli, ko'p qismli, sonata, maqom, variatsiya, va hokazo)

b) Asarning xarakteri (sho'x, g'amgin, lirik, yumorli, mardonavor...)

Bulardan tashqari, asarning qaysi davrda, kim tomonidan yozilganligi, yaratuvchi-bastakor yoki kompozitorning uslubi yoki yo'nalishi va hokazolar.

Asarni ijro etuvchining ijrochilik psixologiyasi, lirikaga hosmi yoki romantikaga hosmi, o'ynoqiroqmi yoki melanxolikmi? Ijodiy fantaziyasining darajasi, mazkur asar muallifiga o'quvchining munosabatini o'rganish lozim.

2-bosqich. Bu bosqichda asarning nota matnini to'g'ri ijro etish talab etiladi. (Muallif yaratgan asarmi, xalq kuyimi, maqomdan parchami) Ijroning pala-partish bo'lmasligi, mukammalligi uchun quyidagilarga amal qilish lozim:

1. Balandlik aniq bo'lishi.

2. Tovush uzunligi aniq bo'lishi.

3. Muallif yoki muharrir ko'rsatmalari, vazn aniqligi, sur'ati, dinamik aniqlik, usullar (zarb) aniqligi to'g'ri bo'lishi; alohida ishlash talab qilinadigan qismlarni aniqlash; har bir epizodning maqsadini

<sup>4</sup> Sharipov N. "Rubob prima" G'afur G'ulom Toshkent. B.11

aniqlash kabilardir.

Musiqqa ham boshqa jarayonlar kabi harakatda bo'ladi, ya'ni o'zining ko'tarilish va tushish holatlari bo'ladi.

Asardagi ko'tarilishni kulminatsiya deb ataymiz. Asarda bir nechta kulminatsiyalar bo'ladi, lekin markaziy kulminatsiya (avj) bitta bo'ladi.

Eng avvalo markaziy kulminatsiya, keyin boshqalari aniqlanadi. Shunda asarning to'liq mazmuni ko'z oldimizda namoyon bo'ladi. Bularni aniqlash uchun asarni boshidan oxirigacha o'qituvchi ijrosida yoki texnika vositalari yordamida bir necha marta chalib ko'rish, notani o'qib eshitib ko'rish kerak.

3-bosqich. Musiqqa asarining xulosa bosqichida o'quvchi jo'rnavoz bilan chalib chiqishi zarur. Bu vaqtda asarni yoddan chalish maqsadga muvofiqdir.

Ijro jarayonida mazmunli va mantiqli emotsiya – his-hayajon bilan fikrlab, asarni chuqur his etgan holda vaznni asar talabida, badiiy-erkin, kerakli darajada ijodkorlik bilan, o'ziga ishongan holda ijro etishga erishish lozim. O'qituvchi G.N.Neygauzning: "O'quvchining bo'sh bo'lgan jihatlari uchun asarni o'quvchiga moslashtirishi emas, aksincha o'quvchini asar ijrosiga moslashtirishi lozim"- degan ta'limotining uslubiy ko'rsatmalariga amal qilishi shart.

Asar ijrosini to'liq egallagandan so'ng bajariladigan vazifalar:

1. Notaga qarab asbobda chalish.
2. Notasiz asbobda chalish.
3. Nota bilan asbobsiz ko'rib chiqish.
4. Notasiz, asbobsiz fikrda chalib chiqish.

Asarni asl holda ijro etishni yo'lga qo'yish uchun D.Oystraxning tajribalariga nazar solasak, "bir necha yillab asarni ijro etish shu asarning ichida yashash, uni his etish lozim".

Shundagina asar ijrochiga yaqin bo'lib qoladi va ijrochi uni mukammal ijro etishga harakat qiladi.

Bulardan tashqari mutaxassis o'qituvchi sinfda ta'lim va tarbiya ishlarini uzluksiz olib borishi, ularda vatanparvarlik ruhini, mehnatsevarlik, etika-estetika, badiiy didni takomillashtirishi va qisqasi, ularning komil inson bo'lib yetishishlariga erishishga intilishi lozim<sup>5</sup>.

Endi esa musiqaning inson psixologiyasiga ta'siri haqida ma'lumotlar keltiramiz.

Insonning ruhiy kamoloti haqida gapirar ekanmiz, albatta bu maqsadga musiqqa san'atisiz erishib bo'lmaydi. Xalqimiz hayotida musiqqa azaldan beqiyos o'rin tutib keladi. Samarqand yaqinidagi Mo'minobod qishlog'idan uch ming uch yuz yil avval suyakdan yasalgan nay cholg'usi topilgani ham shundan dalolat beradi.

Musiqqa sadolari qaysi xalq yoki millat vakili tomonidan ijro etilmasin, eng ezgu, yuksak va nozik insoniy kechinmalarni ifoda etadi. Eng muhimi bugungi kunda musiqqa san'ati navqiron avlodimizning yuksak ma'naviyat ruhida kamol topishida boshqa san'at turlariga qaraganda ko'proq va kuchliroq ta'sir ko'rsatmoqda<sup>6</sup>.

Rivoyat qilishlaricha, olam kuy-ohanglardan tuzilgan ekan. Musiqqa shunchaki ermak uchun yaratilib tinglanadigan ohang emas. U hayotning quvonchidan va g'am-alami, tashvishlaridan yaratilgan. Donishmandlardan biri "Agar inson dardini so'z bilan ifodalay olganda, musiqqa yaratilmagan bo'lar edi"- deb haq gapni aytgan ekan.

Musiqaning yaratilish tarixi hozirgacha jumboq bo'lib qolmoqda. Balkim qachonlardir avlodlarimizdan biri hayotdagi qiyinchiliklardan dod deb, g'am-alam chekib, tog'u-toshlarni kezib,

<sup>5</sup> Muhammedova G. "Dutor darsligi" O'qituvchi. Toshkent. 2005. B.36

<sup>6</sup> Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat 2010. B.140-141

yurganda tasodifan qamishdan nay yasab dardini kuy qilib chalgandir. Uni eshitganlarning ham ko'ngli taskin topgandir. Bu haqda XIII asrda yashab ijod qilgan shoir va mutaffakkir Jaloliddin Rumi shunday yozgan:

“Tingla, nay andoq hikoyatlar qilur,  
Ayriliqdan shikoyatlar qilur”.

Bundan qariyib yetti yuz yil keyin yozilgan, zamondoshimiz, mashxur shoirimiz A.Oripovning “Munojotni tinglab” she'rini eslang:

Eshilib, to'lg'onib ingranadi kuy,  
Asrlar g'amini so'ylar “Munojot”.  
Kuyi shunday bo'lsa, g'amning o'ziga  
Qanday chiday olgan ekan odamzod.

Yer yuzidagi barcha onalar go'daklariga alla aytadilar, yana hammalari buni bir xilda ijro etadilar, yuqori pardalarda hotirjam sur'atda, tovushlarning aniq tusi bilan. Har qaysi millatning o'z allasi bor, lekin allalar qaysi tilda kuylansa ham unda Vatanga, farzandga bo'lgan mehr-muhabbat tuyg'usi yotadi. Modomiki, har bir ona o'z farzandiga hirgoyi qilish ehtiyojini his qilgan ekan, boz ustiga ushbu ehtiyoj unga qanday kuylashni ham amr etar ekan. Demak, musiqa – bu tabiiy, tug'ma ehtiyoj.

Ko'plab tadqiqotlar natijalariga ko'ra, G'arb musiqalaridan rok-n-roll va disko yo'nalishidagi musiqa odamlarning salomatligiga, madaniyatiga zarar yetkazadi. Klassik musiqa esa, odatda, barqaror va vazminlik holatini, aql-zakovat va yuksak ahloqni baxsh etadi. Shuning uchun ham yaxshi musiqa insonni kamolga yetkazish vositasi, tan-sihatlik uchun ozuqa. Yaxshi konsert, bu – noyob fizioterapiya va ruhiy quvvat manbai.

Har bir odamning sevimli kuylari bor. Bu kuylar odamning hayotida yuz bergan muayyan yoqimli hotiralar bilan ulanib ketgan bo'ladi. U shu kuyni tinglaganida behtiyor shodlanadi, qalbi zavq-shavqqa to'ladi, hayotga, kelajakka ishonch bilan nazar tashlaydi.

Yoqimli musiqa asarlarini tinglash, ularning yaratilishiga sabab bo'lgan shart-sharoitlarni o'rganish bastakorning o'zini, uning ichki kechinmalarini hamda asarini chuqurroq va zo'r qiziqish bilan idrok qilishimizga yordam beradi. Boshqacha qilib aytganda, musiqaviy tarbiya jarayonida biz musiqani idrok qilishga o'rganamiz<sup>7</sup>.

#### XULOSA

Ota-boboblarimiz aytganidek “Mehnatsiz turmush - o'g'rilik, san'atsiz turmush - vaxshilikdir”. Hozirgi tezlik bilan rivojlanayotgan zamonda san'at kishilar uchun oziq-ovqat, kiyim-kechak, uyqu kabi judayam muhim bo'lgan ehtiyojga aylandi. Hayotimizning har bir jabhasida musiqa va san'at bilan qarshilashamiz. Hech birimiz hozirgi hayotimizni kitoblarsiz, kinolarsiz, musiqa yoki teatr tomoshalarisiz tasavvur qila olmaymiz.

O'sib kelayotgan yosh avlodni har tomonlama yetuk, ma'naviy, barkamol, estetik va badiiy dunyoqarashi shakllangan, madaniyatli insonlar qilib tarbiyalash bugungi kunda ta'lim-tarbiya muassasalari oldida turgan dolzarb masalalardandir. Ushbu maqolada bolalar musiqa va san'at maktablarida olib boriladigan musiqa mashg'ulotlari orqali bolalarga musiqa asarini o'rganish va uni ijro etish uslubini o'rgatibgina qolmay, ularda nazariy va amaliy ma'lumotlarni o'zlashtirish shu jarayon orqali ko'nikma va malakalarini hosil qilish bilan ularni g'oyaviy, ma'naviy dunyoqarashlarini, estetik madaniyatini tarkib toptirishdan iboratligi haqidagi fikr va mulohazalarni keltirib o'tildi.

<sup>7</sup> Ergasheva G. Ta'lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. Toshkent. 2016. B.252-253

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-112 sonli qarori.
2. Nemirovskiy G.K. Nafosat sohiblari. O'qituvchi. Toshkent-1970. B.3
3. Sharipova.G. Najmekdinov G'. Musiqa o'qitish praktikumi. Toshkent. Turon-Iqbol. 2014.
4. Sharipov N. "Rubob prima" G'afur G'ulom Toshkent. B.11
5. Muhammedova G. "Dutor darsligi" O'qituvchi. Toshkent. 2005. B.36
6. Karimov I.A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch" Toshkent. Ma'naviyat 2010. B.140-141
7. Ergasheva G. Ta'lim va texnologiya. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. Toshkent 2016. B.252-253
8. Хожимаматов А. ГЛОБАЛИЗАЦИЯ И ВОЗРОЖДЕНИЕ НАЦИОНАЛЬНОЙ МУЗЫКАЛЬНОЙ КУЛЬТУРЫ В УЗБЕКИСТАНЕ. "JOURNAL OF SCIENCE-INNOVATIVE RESEARCH IN UZBEKISTAN". JURNALI VOLUME 1, ISSUE 2, 2023. JUNE
5. Achildiyeva, M. (2023). PATNISAKI ASHULANING IJTIMOIIY JARAYONDA FALSAFIY TARAQQIYOTI XUSUSIDA. Journal of Science-Innovative Research in Uzbekistan, 1(2),
6. Achildiyeva, M. (2023). QADIMGI DAVR CHOLG 'U SOZLARI VA ULARNING KELIB CHIQISHI. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
7. Achildiyeva, M., & Mohinur, M. (2023). O 'ZBEK SAN'ATINING ZABARDAST HOFIZI JO 'RAXON SULTONOV. DENMARK" THEORETICAL AND PRACTICAL FOUNDATIONS OF SCIENTIFIC PROGRESS IN MODERN SOCIETY", 14(1).
8. Achildiyeva, M., & Sabina, B. (2023). ALISHER NAVOIY ASARLARIDA MUSIQIY ATAMALAR. Gospodarka i Innowacje. 34,
9. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. (2023). O 'ZBEK MILLIY BALETLARINING PSIXO-ESTETIK AHAMIYATI. Gospodarka i Innowacje., 34,
10. Ikromova, F. Y. Q., & Achildiyeva, M. (2023). XOR SAN'ATINING KELIB CHIQISH TARIXI, UNING JAMIYAT HAYOTIDAGI O 'RNI VA AHAMIYATI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 3(5),
11. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2022). THE USE OF MAQOM METHODS IN THE OPERA " LEYLI AND MAJNUN" BY REINGOLD GLIER AND TOLIBJON SODIKOV. Science and Innovation, 1(4),
12. Khojimamatov, A., & Ikromova, F. (2022). Look at the Polyphony and Theoretical Heritage of SI Taneev. Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences, 8,
13. Hojimatov, A. (2022). CHANG CHOLG 'USI TARIXIGA BIR NAZAR VA UNING ORNAMENTAL BEZAKLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2),
14. Hojimatov, A., & Ikromova, F. (2022). МУСИҚИЙ САҲНАВИЙ АСАРЛАРНИНГ ИЖРОЧИЛИК МУАММОЛАРИ (ЎЗБЕКИСТОН КОМПОЗИТОРЛАРИ ИЖОДИ МИСОЛИДА). Science and innovation, 1(C4),
15. Achildiyeva, M., Khojimamatov, A., Dilafruz, Y., & Ikromova, F. (2021). Uyghur Folk Singing Genre. Turkish Online Journal of Qualitative Inquiry, 12(10).

16. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2), 344-352.
17. Achildiyeva, M., & Ikromova, F. THE SCIENCE OF MUSIC IN THE FORMATION OF HUMAN VALUES IN YOUNG PEOPLE'S LIFE. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, Vol 10 Issue02, Feb 2021 ISSN 2456-5083
18. Achildiyeva, M., Xojimatov, A., & Ikromova, F. (2022). Shashmaqom saboqlari: "Navo" maqomi xususida. INTERNATIONAL JOURNAL FOR ENGINEERING AND MANAGEMENT RESEARCH, 11(01),.
19. Achildiyeva M. 2021 Academic Yunus Rajabi and His Scientific Heristage Annals of Romanian Society for Cyell Biology 25(4) 9092-9100
20. Achildieva, M., Ikromova, F., Abutolipova, M., & Khaydarova, O. (2021). The third renaissance towards ascending. European Scholar Journal, 2(9),
21. Achildiyeva, M., Axmedova, N., Ikromova, F., Haydarova, O., Ibrahimova, G., & Abdurahmonov, A. (2021). TANBUR: ONE OF ANCIENT INSTRUMENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 9(6),
22. Achildieva, M., & Ikromova, F. (2020, December). THE PLACE OF UZBEK MUSIC IN THE ART. In Archive of Conferences (Vol. 10, No. 1, pp.).
23. Achildiyeva, M. (2022). SHASHMAQOM MUSHKILOT BO'LIMINING NAZARIY ASOSLARI. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2(10-2),
24. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET "TOMARIS" IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE SPECTRUM Journal of Innovation, Reforms and Development (2022) ISSN (E):2751-1731
25. Achildieva M, Butabayeva N, Nosirova M. A GLANCE AT THE SCIENTIFIC AND CREATIVE HERITAGE OF BORBAD MARVAZI European Journal of Agricultural and Rural Education (EJARE) Vol. 4 No. 05, May 2023 ISSN: 2660-5643
26. Achildiyeva M. The Role of Music in Forming the Artistic-Aesthetic Taste of Youth BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume:2 Issue:7|2023
27. Xojimatov A Evolution of Philosophical Views on Music and National Musical Heritage BEST JOURNAL OF INNOVATION IN SCIENCE, RESEARCH AND DEVELOPMENT ISSN: 2835-3579 Volume: 2 Issue: 7|2023
28. Achildiyeva M. Atkiyoeva R. O'ZBEK VA JAHON SAHNALARIDA KATTA ASHULANING O'RNI VA AHAMIYATI Journal of Engineering, Mechanics and Modern Architecture Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN: 2181-4384
29. Xojimatov A. Atkiyoeva R. "VODIY BULBULI" TAVAKKAL QODIROVNING IJODIY MEROSI BUGUNGI KUN NIGOHIDA Journal of Innovation, Creativity and Art Vol. 2, No. 7, 2023 ISSN:2181-4287
30. Ачилдиева Муясархон Адилжоновна, Носирова Муслимахон Ойбек қизи, КОРРУПЦИЯ: ТАРИХ ВА ТАҚДИР. «ОЛИЙ ТАЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ КУРАШИНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАРИ» ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНДЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ ТО'ПЛАМИ (2022 г., 6 декабрь) ISSN 2181-1571 (I-qism)
31. Ачилдиева Муясархон Адилжоновна, Икромова Фарангис, КОРРУПСИЯ- МИЛЛИЙ ТАРРАКИЕТ ВА ЖАМИЯТ РИВОДЖИ КУШАНДАСИДИР. «ОЛИЙ ТАЛИМ ТИЗИМИДА



КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ ҚУРАШИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАРИ» ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНДЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ ТО'ПЛАМИ (2022, 6 декабрь) ISSN 2181-1571 (I-qism)

32. Хожимаматов Азимжон Файзулло ўғли, Назархўжаева Рухшонабону Умид қизи, КОРРУПСИЯ – АСР ВАБОСИ. «ОЛИЙ ТАЛИМ ТИЗИМИДА КОРРУПСИЯГА ҚАРШИ ҚУРАШИШНИНГ ЗАМОНАВИЙ ЙОНДАШУВЛАРИ» ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНДЖУМАН МАТЕРИАЛЛАРИ ТО'ПЛАМИ (2022 г. 6 декабрь) ISSN 2181-1571 (I-qism)

33. Achildiyeva M. Ikromova F. THE BALLET “TOMARIS” IN THE CULTURE OF UZBEK BALLET PLASE AND SIGNIFICANCE Spectrum Journal of Innovation, Reforms and Development ISSN (E):2751-1731 15-19 bet (Berlin Germany 2022)

34. Maxfuzakhon Karimova, Muyassarkhon Achildiyeva, Farangiz Ikromova (2021) USE FROM REDAGOGICAL TECHNOLOGIES IN MUSIC LESSONS EUROPEAN SCHOLAR JOURNAL “An open accyess, peyer reviyewyed multidisciplinary journal” 2 (4).

35. Achildiyeva M, Ikromova F Choir Art in Uzbekistan Botir Umidjonov Eurasian Journal of Humanities and Social Sciences (Brussel, Belgium 2022) ISSN 2795-7683

36. Achildiyeva M, Ikromova F (2021) ABOUT MAHMUDJON TOJBOYEVS PEDAGOGICAL ACTIVITY GALAXY INTERNATIONAL INTERDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL (GIIRJ) 9(5)

37. Achildiyeva, M., & Atkiyoyeva, R. XX-АЧИНГ «ХАМНАФАС» ХОФИЗЛАРИ "ENGLAND" MODERN PSYCHOLOGY AND PEDAGOGY: PROBLEMS AND SOLUTION Vol. 10 No. 1 (2023)

38. Jalilova, R. (2023). HISTORY OF LANDSCAPE IN MIDDLE ASIAN WORKS OF ART, PHILOSOPHICAL AND AESTHETIC METHODOLOGY OF EDUCATIONAL PROBLEMS AND SOLUTIONS. Science and innovation, 2(C7),

39. Jalilova, R. (2023). User experience and user interface design. Scientific Collection «InterConf», (158),

40. Djalilova, R. (2023). THE DIFFERENCE OF CREATIVE AND EDUCATIONAL TEACHING OF STILL LIFE IN PAINTING, PROBLEMS IN THE EDUCATION OF YOUNG EDUCATORS. Science and Innovation, 2(6),

41. Djalilova, R. Q. (2023). Methodology, History, Pedagogical Methodology of Fine Arts. Texas Journal of Philology, Culture and History, 18,.

42. Djalilova, R., Ahmedbekova, M., & Polatov, D. (2023). Big data as a means of management by construction, or “Hypernudge”. In E3S Web of Conferences (Vol. 402, p. 03012). EDP Sciences.